



## NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHASINI ISHLAB CHIQUISH VA KELISHISHNING YAGONA ELEKTRON TIZIMI

ID-8542 (V-2)

### O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori

#### **Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko‘ra bekor qilinganda moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlardan foydalanish bo‘yicha elektron davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasining 2025-yil 15-avgustdagi 71-son majlisi bayoniga muvofiq, shuningdek, fuqarolarning bandlik sohasidagi davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonini yanada soddalashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

1. Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo‘yicha davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti 1-ilovaga muvofiq;

Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar bo‘shagan ish joyidan uchinchi oyga o‘rtacha oylik ish haqi to‘lanishi uchun ma‘lumotnoma olish bo‘yicha elektron davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo‘yicha elektron davlat xizmati tuman, shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari va Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman, shahar bo‘limlari tomonidan birgalikda ko‘rsatiladi;

ushbu qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan ma‘muriy reglamentga muvofiq ariza beruvchilar davlat xizmatidan foydalanish uchun O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qiladilar va xizmat ko‘rsatilishining tegishli bosqichida maqbul keladigan ish bo‘yicha taklif olish uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga borishlari lozim.

3. Raqamli texnologiyalar vazirligi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan birgalikda 2026-yil 1-aprelgacha bo'lgan muddatda:

davlat xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etuvchi tuzilmalarining O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga (keyingi o'rinlarda YaIDXP deb yuritiladi) ulanishini ta'minlasin;

YIDXPda mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilingan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning har bir bosqichida jismoniy shaxslarning murojaatlari ko'rib chiqilishini kuzatib borish tartibotini joriy etsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri B.E. Zaxidov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri**

**A. Aripov**

**Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda  
ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir  
pensiya tayinlash bo‘yicha elektron davlat xizmati ko‘rsatishning  
ma‘muriy reglamenti**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Reglament alohida asoslarga (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 161-moddasi ikkinchi qismining 1 va 2-bandlarida ko‘rsatilgan sabablarga) ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo‘yicha elektron davlat xizmati (bundan buyon matnda davlat xizmati deb yuritiladi) ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**YIDXP** – O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali;

**mahalliy mehnat organlari** – O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tuman, shahar bo‘linmalari – Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari;

**pensiya bo‘limlari** – Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman, shahar bo‘limlari;

**“Pensiya” dasturiy majmuasi** – Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining “Pensiya” dasturiy majmuasi;

**alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasini bekor qilish** – tashkilot (uning alohida bo‘linmasi) o‘z muassislarining (ishtirokchilarining) yoki ta‘sis hujjatlari bilan bunga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qarori bilan tugatilganligi yoxud yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan faoliyatning tugatilganligi, texnologiyaning, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o‘zgarishi, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilot (uning alohida bo‘linmasi), yakka tartibdagi tadbirkor xodimlari sonining yoki shtatining o‘zgarganligi munosabati bilan ishdan bo‘shatish;

**ariza beruvchi** – alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilingan umumiy mehnat staji yigirma besh yildan kam bo‘lmagan 58 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar va umumiy mehnat staji yigirma yildan kam bo‘lmagan 53 yoshdan 55 yoshgacha ayollar;

**muddatidan oldin yoshga doir pensiya** – alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilingan va mahalliy mehnat organlari tomonidan belgilangan tartibda ishsiz deb e‘tirof etilgan, pensiya ta‘minoti to‘g‘risidagi qonunchilik

hujjatlariga muvofiq pensiyaga chiqish uchun talab etiladigan umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan shaxslarga umumiy asoslarga ko'ra pensiya tayinlash muddatidan ikki yil oldin tayinlanadigan pensiya.

3. Davlat xizmati YIDXP orqali mahalliy mehnat organlari va pensiya bo'limlari tomonidan mazkur Reglamentning 1-ilovasidagi sxemaga muvofiq ko'rsatiladi.

4. Davlat xizmatidan alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinmagan, 58 yoshdan 60 yoshgacha bo'lmagan umumiy mehnat staji yigirma besh yildan kam bo'lgan erkaklar va 53 yoshdan 55 yoshgacha bo'lmagan umumiy mehnat staji yigirma yildan kam bo'lgan ayollar foydalana olmaydi.

Shuningdek, quyidagi toifadagi shaxslar ham davlat xizmatidan foydalanish uchun YIDXP orqali so'rov yubora olmaydi:

ta'lim muassasalarida va tashkilotlarida ishlab chiqarishdan ajralgan holda tahsil olayotgan shaxslar, bundan ta'limning sirtqi shaklida tahsil olayotganlar mustasno;

qonunchilikka muvofiq pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lgan shaxslar (pensiya turidan qat'i nazar);

bola ikki yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilayotgan, ishlamayotgan ayollar;

ishini o'zgartirmoqchi bo'lgan, lekin mahalliy mehnat organlarida ro'yxatdan o'tish paytida, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tashkilotlarda ishlovchi yoki ularning shtatida hisobda turuvchi shaxslar;

sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoga hukm qilinganlar;

fermer xo'jaliklarining rahbarlari va xodimlari, oilaviy korxonalarining ishtirokchilari, dehqon xo'jaliklarining rahbarlari va a'zolari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar;

o'zini o'zi band qilgan shaxslar.

## **2-bob. Davlat xizmatini ko'rsatish tartibi**

5. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilingan kundan so'ng o'ttiz kalendar kun ichida murojaat qilishi lozim.

Bunda ariza beruvchi YIDXPdan ro'yxatdan o'tadi va ushbu Reglamentning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi so'rovnomani to'ldiradi.

6. So'rovnomani to'ldirish jarayonida ariza beruvchi to'g'risidagi "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasida mavjud ma'lumotlar

so'rovnoma avtomatik tarzda kiritiladi.

Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganligi to'g'risidagi buyruq nusxasi ariza beruvchi tomonidan PDF, PNG yoki JPEG formatda ilova qilinadi.

Agar ariza beruvchining mehnat staji to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq raqamlashmagan bo'lsa, mehnat daftarchasining nusxasi PDF, PNG yoki JPEG formatda ilova qilinishi lozim.

7. Ariza beruvchi so'rovnoma to'ldirgandan so'ng ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi. Bunda, so'rovnoma elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash talab etilmaydi

To'ldirilgan so'rovnoma YIDXP orqali avtomatik ravishda ariza beruvchining yashash joyidagi mahalliy mehnat organiga va Pensiya bo'limiga yuboriladi.

8. Mahalliy mehnat organi so'rovnoma kelib tushgan kundan e'tiboran bir ish kuni ichida:

muddatidan oldin pensiya tayinlanishi uchun talab etiladigan mehnat stajini tasdiqlaydigan ma'lumotlar mavjudligini va ariza beruvchi bilan mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganligi to'g'risidagi yozuvlar ish beruvchi tomonidan "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilganligini tekshiradi;

ushbu bandning ikkinchi xatboshisidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda ariza beruvchini ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga oladi va u maqbul keladigan ish bo'yicha taklif olishi uchun mahalliy mehnat organiga kelishi lozimligi to'g'risida og'zaki yoki yozma shaklda xabardor qiladi.

9. Ariza beruvchi tomonidan ma'lumotlar to'liq taqdim etilmaganda, so'rovnoma va unga ilova qilinadigan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar aniqlanganda, ariza beruvchi mavjud kamchiliklarni bartaraf qilib, belgilangan hujjat topshirish muddati ichida takroran murojaat qilish huquqiga ega.

10. Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilingan kundan so'ng o'ttiz kalendar kunlik muddat tugagandan keyin yuborilgan murojaatlar ko'rib chiqilmaydi.

11. Ariza beruvchi ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida mahalliy mehnat organiga maqbul keladigan ish (fuqaro bajarishga qodir bo'lgan, fuqaroning olgan ma'lumoti yo'nalishi va ixtisosligiga, malakasiga, kasbiy tayyorgarligiga, ish tajribasiga, sog'lig'ining holatiga ko'ra mos keladigan, yashash joyini o'zgartirishini nazarda tutmaydigan, uning doimiy yashash joyidan unchalik uzoq bo'lmagan hamda mehnatga haq to'lashning

belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan ish haqini kafolatlaydigan ish) yuzasidan taklif olish uchun borishi kerak.

12. Mahalliy mehnat organi ariza beruvchiga maqbul keladigan ishni topishda yordam beradi va uni ishga joylashtirish chorasini ko‘radi.

13. Agar ariza beruvchi ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olingan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida maqbul keladigan ish yuzasidan taklif olish uchun mahalliy mehnat organiga kelsa;

taklif etilgan maqbul keladigan ishni ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olingan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida uzrli sababsiz ikki marta rad etmasa (kasallik yoki hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa holatlar mavjud bo‘lmaganda);

ariza beruvchiga u ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olingan kundan e‘tiboran dastlabki o‘n kun ichida ikki marta maqbul keladigan ish taklif etilmagan bo‘lsa;

mahalliy mehnat organi ariza beruvchi ishga joylashtirish uchun yuborilgan tashkilotdan rad javobini olgan bo‘lsa ariza beruvchi ishsiz deb e‘tirof etiladi.

14. Agar ushbu Reglamentning 13-bandida ko‘rsatilgan shartlar bajarilmasa, ariza beruvchi ishsiz deb e‘tirof etilmaydi va davlat xizmatini ko‘rsatish yakuniga yetkaziladi hamda mahalliy mehnat organi bu haqda ariza beruvchiga mazkur Reglamentning 3-ilovasiga muvofiq rasmiylashtirilgan xabarnomani yuboradi.

Ariza beruvchi unga taklif etilgan ishni rad etgan paytdan yoki maqbul keladigan ish bo‘yicha taklif olish uchun mahalliy mehnat organiga uzrli sababsiz kelmagan paytdan e‘tiboran o‘ttiz kalendar kun o‘tganidan keyin davlat xizmatidan foydalanish uchun qayta murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi.

15. Ariza beruvchiga muddatidan oldin pensiya tayinlanishi uchun taqdimnoma ushbu Reglamentning 4-ilovasiga muvofiq quyidagi asoslarga ko‘ra mahalliy mehnat organi tomonidan tayyorlanadi:

ariza beruvchi ishsiz deb e‘tirof etilsa;

mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko‘ra bekor qilinganligi to‘g‘risidagi yozuvlar ish beruvchi tomonidan “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilgan bo‘lsa;

muddatidan oldin pensiya tayinlanishi uchun talab etiladigan mehnat stajini tasdiqlaydigan ma’lumotlar mavjud bo‘lsa.

16. Mahalliy mehnat organi taqdimnoma tayyorlangandan so‘ng bir ish kunida:

taqdimnomani tegishli tuman, shahar Pensiya bo‘limiga yuboradi;

muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlanishi uchun pensiya bo‘limiga taqdimnoma kiritilganligi to‘g‘risida ariza beruvchining YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga ushbu Reglamentning 5-ilovasiga muvofiq xabarnoma yuboradi.

17. Mahalliy mehnat organi tomonidan berilgan taqdimnoma Pensiya bo‘limi muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlashi uchun asos hisoblanadi.

18. Pensiya bo‘limi mahalliy mehnat organi tomonidan berilgan taqdimnoma asosida ariza beruvchiga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlaydi yoki rad etadi va bu haqda shu kunning o‘zida ushbu Reglamentning 6-ilovasiga muvofiq xabarnomani rasmiylashtirib, ariza beruvchiga yuboradi.

Ariza beruvchiga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlanganligi yoki rad etilganligi to‘g‘risidagi xabarnoma nusxasi tegishli mahalliy mehnat organiga yuboriladi.

19. Muddatidan oldin yoshga doir pensiya miqdori «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Qonunda belgilangan tartib asosida hisoblab chiqariladi.

20. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishni xizmat ko‘rsatishning har qanday bosqichida rad etish huquqiga ega.

21. Davlat xizmati ko‘rsatilganligi uchun to‘lov undirilmaydi.

### **3-bob. Yakunlovchi qoidalar**

22. Mahalliy mehnat organlari va Pensiya bo‘limlari davlat xizmatini ko‘rsatish jarayonida olingan ariza beruvchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning maxfiylikini ta‘minlaydi.

23. Ariza beruvchilar mahalliy mehnat organlari xodimlari va Pensiya bo‘limlarining xatti-harakatlari yoki harakatsizligi yuzasidan yuqori turuvchi tashkilotlarga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

24. Ushbu Reglament talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo‘yicha elektron davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga

1-ilova

**Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo‘yicha elektron davlat xizmatini ko‘rsatish sxemasi**

Bosqichlar	Sub'ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Davlat xizmatidan foydalanish uchun YIXDP orqali ro'yxatdan o'tadi	Mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan so'ng o'ttiz kalendar kun ichida
2-bosqich	Mahalliy mehnat organi	<p>Muddatidan oldin pensiya tayinlanishi uchun talab etiladigan mehnat stajini tasdiqlaydigan ma'lumotlar mavjudligini va ariza beruvchi bilan mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganligi to'g'risidagi yozuvlar ish beruvchi tomonidan "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilganligini tekshiradi. Ariza beruvchini ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga oladi.</p> <p>Ariza beruvchi mahalliy mehnat organiga maqbul keladigan ish yuzasidan taklif olish uchun ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida kelishi lozimligi to'g'risida yozma yoki elektron shaklda ariza beruvchini YIDXP orqali QR-kodli ma'lumotnoma yuborib xabardor qiladi.</p>	<p>Murojaat kelib tushgandan so'ng bir ish kuni ichida</p> <p>Ariza beruvchi ish qidirayotgan shaxs ro'yxatga olingan olingan kundan boshlab bir ish kunida</p>
3-bosqich	Ariza beruvchi	Mahalliy mehnat organiga maqbul keladigan ish	Ariza beruvchi ish qidiruvchi

		yuzasidan taklif olish uchun boradi.	shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n kun ichida
4-bosqich	Mahalliy mehnat organi	O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq ariza beruvchini ishga joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Ariza beruvchini ishga joylashtirish imkoni bo'lmasa, uni ishsiz deb e'tirof etadi.	Ariza beruvchi ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran o'n birinchi kundan kechiktirmay
5-bosqich	Mahalliy mehnat organi	Ariza beruvchiga muddatidan oldin pensiya tayinlanishi uchun taqdimnomani tayyorlaydi va tegishli tuman, shahar Pensiya bo'limiga YIDXP orqali QR-kodli ma'lumotnoma yuboradi.	Ariza beruvchini ishsiz deb e'tirof etilgandan so'ng bir ish kuni
6-bosqich	Pensiya bo'limi	Mahalliy mehnat organi tomonidan berilgan taqdimnoma asosida ariza beruvchiga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlaydi yoki rad etadi va bu haqda ariza beruvchiga YIDXP orqali QR-kodli xabarnoma yuboradi. Xabarnomaning nusxasini tegishli mahalliy mehnat organiga YIDXP orqali taqdim etadi.	Mahalliy mehnat organidan taqdimnoma kelib tushgandan so'ng besh ish kuni ichida

Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo'shatilgan xodimlarga muddatidan

oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo'yicha elektron davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga  
2-ilova

**Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo'shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo'yicha elektron davlat xizmatidan foydalanish uchun so'rovnoma**

<b>Ariza beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlar</b>	
1. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR):	
2. Familiyasi	
3. Ismi:	
4. Otasining ismi:	
5. Tug'ilgan yili va sanasi:	
6. Yashash manzili:	
7. Ma'lumoti (umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy):	
8. Tugallagan ta'lim muassasasining nomi:	
9. Mutaxassisligi (mavjud bo'lsa):	
10. Kasbi (mavjud bo'lsa):	
11. Oxirgi ish joyi:	
12. Umumiy mehnat staji:*	
13. Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar (buyruq raqami, sanasi):**	
12. Telefon raqami:	
13. Elektron pochta manzili (mavjud bo'lsa):	

Izoh:

\* Mehnat staji ma'lumotlari to'liq raqamlashmagan bo'lsa, mehnat daftarchasining nusxasi PDF, PNG yoki JPEG formatda ilova qilinadi.

\*\* Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganligi to'g'risidagi buyruq nusxasi PDF, PNG yoki JPEG formatda ilova qilinadi.

Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo'shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo'yicha elektron davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga  
3-ilova

**Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor  
qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin  
yoshga doir pensiya tayinlash bo‘yicha elektron davlat xizmatini  
ko‘rsatish rad qilinganligi to‘g‘risida xabarnoma**

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami

### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri**

(Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi nomi)

\_\_\_\_\_tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda Sizning 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-son

(yil, kun, oy)

so‘rovnomangizni ko‘rib chiqib, muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatish rad etilganligini ma‘lum qiladi.

Rad etish asoslari (O‘zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonunining 44-45-moddalarida belgilangan holatlar):

- 1.
- 2.
- 3.

Axborot tariqasida ma‘lum qilinadiki, O‘zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonunining 45-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ishsiz deb e‘tirof etish rad qilingan shaxs taklif etilgan ishni rad etgan paytdan yoki maqbul keladigan ish bo‘yicha taklif olish uchun mahalliy mehnat organiga uzrli sababsiz kelmagan paytdan e‘tiboran o‘ttiz kalendar kun o‘tganidan keyingina ish qidirayotgan shaxs sifatida takroran ro‘yxatdan o‘tish huquqiga ega.

(mas'ul shaxsning lavozimi)

(F.I.O.)

QR-kod

Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo‘yicha elektron davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga  
4-ilova

**Tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan ishsiz deb e‘tirof etilgan va muddatidan oldin yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarga muddatidan oldin pensiya tayinlanishi uchun taqdimnoma**

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri**

4-shakl

QR-kod

\_\_\_\_\_ tuman (shahar) Kambag‘allikni  
qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi  
202\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_ -son

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan  
tashqari Pensiya jamg‘armasining  
\_\_\_\_\_ tuman (shahar) bo‘limiga

**TAQDIMNOMA**

(Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi nomi)

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 161-moddasi ikkinchi qismining 1 va 2-bandlari, O‘zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonuni 49-moddasining to‘qqizinchi qismiga asosan va Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani (ro‘yxat raqami 588, 1999-yil 7-yanvar) qo‘llagan holda, \_\_\_\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da tug‘ilgan \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ ni

(ishsizning F.I.O.)

(pasporti yoki identifikatsiya ID-kartasi ma‘lumotlari)

muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash uchun taqdim etadi.

\_\_\_\_\_ 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da

(ishsizning F.I.O.)

---

(ishdan bo'shatilish sababi ko'rsatiladi)

ishdan bo'shatilgan va 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dan ishsiz deb e'tirof etilgan.

Kambag'allikni  
qisqartirish va bandlikka ko'maklashish  
bo'limi boshlig'i

\_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

QR-kod

Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo‘yicha elektron davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga  
5-ilova

**Muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlanishi uchun pensiya bo‘limiga taqdimnoma kiritilganligi to‘g‘risida xabarnoma**

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri**

(Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi nomi)

\_\_\_\_\_ tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda Sizing 20\_\_ yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-son so‘rovnomangizni ko‘rib chiqib, muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlanishi uchun \_\_\_\_\_ tuman (shahar) pensiya bo‘limiga 20\_\_ yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_da \_\_\_\_\_-sonli taqdimnoma kiritildi.

\_\_\_\_\_  
(mas‘ul shaxsning lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

QR-kod

Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash bo‘yicha elektron davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga  
6-ilova

**Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlanganligi to‘g‘risida xabarnoma**

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami

## O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri

(Pensiya bo‘limi nomi)

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 161-moddasi ikkinchi qismining 1 va 2-bandlari, O‘zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonuni 49-moddasining to‘qqizinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Qonunining 14-moddasi, Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnama (ro‘yxat raqami 588, 1999-yil 7-yanvar) va \_\_\_\_\_ tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-son taqdimnomasiga asosan, \_\_\_\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_da tug‘ilgan

\_\_\_\_\_ga

(ishsizning F.I.O.)

\_\_\_\_\_ (pasporti yoki identifikatsiya ID-kartasi ma‘lumotlari)

muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash/rad etish uchun \_\_\_\_\_ tuman (shahar) Pensiya bo‘limining 20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-son qarori qabul qilindi.

### Muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlangan shaxslar uchun zarur bo‘lgan axborotlar:

1. Muddatidan oldin tayinlangan pensiyalar ishlamaydigan fuqarolarga to‘lanadi. Bunday pensiyani olayotgan fuqarolar umumiy asoslarda pensiya olish yoshiga (erkaklar 60 yoshga, ayollar 55 yoshga) yetgunga qadar ishga kirgan hollarda muddatidan oldin pensiya to‘lash to‘xtatiladi.

14. Muddatidan oldin pensiya tayinlangandan so'ng fuqarolar ishga kirib, so'ngra belgilangan umumiy pensiya yoshiga yetgunlariga qadar ishdan bo'shasalar, mehnat shartnomasining bekor qilinish sababiga bog'liq ravishda quyidagi tartib qo'llaniladi:

agar mehnat shartnomasi Mehnat kodeksi 161-moddasi ikkinchi qismining 1 va 2-bandlarida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra bekor qilinsa, muddatidan oldin pensiya Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo'shatilgan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomada (ro'yxat raqami 588, 1999 yil 7 yanvar) va mazkur Reglamentda belgilangan shartlar va tartib asosida qayta tayinlanadi;

agarda mehnat shartnomasi boshqa sabablarga ko'ra bekor qilinsa, muddatidan oldin pensiya qayta tayinlanmaydi va avval tayinlangan pensiya to'lovi ham tiklanmaydi.

---

(mas'ul shaxsning lavozimi)

QR-kod

---

(F.I.O.)

**Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilingan  
xodimlar bo‘shagan ish joyidan uchinchi oyga o‘rtacha oylik ish  
haqi to‘lanishi uchun ma‘lumotnoma olish bo‘yicha elektron  
davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Reglament alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasi va “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 49-moddasiga muvofiq) bo‘shagan ish joyidan uchinchi oyga o‘rtacha oylik ish haqi to‘lanishi uchun ma‘lumotnoma olish bo‘yicha elektron davlat xizmati (bundan buyon matnda davlat xizmati deb yuritiladi) ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**YIDXP** – O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali;

**mahalliy mehnat organlari** – O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tuman, shahar bo‘linmalari – Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari;

**ariza beruvchi** – mehnat shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasi birinchi qismida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra bekor qilingan shaxslar;

**alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasini bekor qilish** –O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasi birinchi qismida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra ishdan bo‘shatish.

3. Davlat xizmati YIDXP orqali mahalliy mehnat organlari va pensiya bo‘limlari tomonidan mazkur Reglamentning 1-ilovasidagi sxemaga muvofiq ko‘rsatiladi.

4. Davlat xizmatidan faqat mehnat shartnomasi quyidagi asoslarga ko‘ra bekor qilinganlar foydalana oladi:

xodim yangi mehnat shartlari asosida ishlashni davom ettirishni rad etganligi;

xodim ish beruvchi bilan birga ishlash uchun boshqa joyga ko‘chishni rad etganligi;

xodim sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra tibbiy xulosaga muvofiq sog‘lig‘ining holati bo‘yicha o‘ziga qarshi ko‘rsatma mavjud bo‘lmagan boshqa ishga o‘tishni rad etganligi yoki ish beruvchida tegishli ish mavjud emasligi;

texnologiyaning, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o'zgarishi sababli tashkilot xodimlarining soni yoki shtati o'zgarganligi, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarganligi;

tashkilotning (uning alohida bo'linmasining) o'z ta'sischilari (ishtirokchilari) qaroriga ko'ra tugatilganligi yoxud ta'sis hujjatlari bilan shunga vakolatli bo'lgan yuridik shaxs organining qaroriga ko'ra tugatilganligi;

bajarayotgan ishiga malakasi yetarli emasligi oqibatida noloyiq ekanligi;

shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimning ishga tiklanganligi;

sudning tashkilotni tugatish to'g'risidagi qarori qonuniy kuchga kirganligi.

## **2-bob. Davlat xizmatini ko'rsatish tartibi**

5. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilingan kundan so'ng o'ttiz kalendar kun ichida murojaat qilishi lozim.

Bunda ariza beruvchi YIDXPdan ro'yxatdan o'tadi va ushbu Reglamentning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi so'rovnomani to'ldiradi.

6. So'rovnomani to'ldirish jarayonida ariza beruvchi to'g'risidagi "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasida mavjud ma'lumotlar so'rovnomaga avtomatik tarzda kiritiladi.

Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganligi to'g'risidagi buyruq nusxasi ariza beruvchi tomonidan PDF, PNG yoki JPEG formatda ilova qilinadi.

7. Ariza beruvchi so'rovnomani to'ldirgandan so'ng ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi. Bunda, so'rovnomani elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash talab etilmaydi.

To'ldirilgan so'rovnoma YIDXP orqali avtomatik ravishda ariza beruvchining yashash joyidagi mahalliy mehnat organiga yuboriladi.

8. Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilingan kundan so'ng o'ttiz kalendar kunlik muddat tugagandan keyin yuborilgan murojaatlar ko'rib chiqilmaydi.

9. Mahalliy mehnat organi so'rovnoma kelib tushgan kundan e'tiboran bir ish kuni ichida ariza beruvchi bilan mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganligi to'g'risidagi yozuvlar ish beruvchi tomonidan "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilganligini tekshiradi.

10. Ariza beruvchi tomonidan ma'lumotlar to'liq taqdim etilmaganda, so'rovnoma va unga ilova qilinadigan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan

ma'lumotlar aniqlanganda, ariza beruvchi mavjud kamchiliklarni bartaraf qilib, belgilangan hujjat topshirish muddati ichida takroran murojaat qilish huquqiga ega.

11. Ariza beruvchi tomonidan ma'lumotlar to'liq taqdim etilgan va ushbu Reglamentning 9-bandidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda mahalliy mehnat organi ariza beruvchini ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga oladi.

12. Mahalliy mehnat organi ariza beruvchiga u ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatga olinganligi to'g'risida mazkur Reglamentning 3-ilovasiga muvofiq rasmiylashtirilgan ma'lumotnomani yuboradi.

13. Ariza beruvchi mahalliy mehnat organi tomonidan berilgan ma'lumotnoma bo'yicha uchinchi oy uchun ham avvalgi ish joyidan o'rtacha oylik ish haqini olish huquqiga ega bo'ladi.

14. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishni xizmat ko'rsatishning har qanday bosqichida rad etish huquqiga ega.

15. Davlat xizmati ko'rsatilganligi uchun to'lov undirilmaydi.

### **3-bob. Yakunlovchi qoidalar**

16. Mahalliy mehnat organlari ariza beruvchilarning elektron hisobini yuritadi va davlat xizmatini ko'rsatish jarayonida olingan ariza beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi.

17. Ariza beruvchilar mahalliy mehnat organlari xodimlarining xatti-harakatlari yoki harakatsizligi yuzasidan yuqori turuvchi tashkilotlarga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

18. Ushbu Reglament talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar bo'shagan ish joyidan uchinchi oyga o'rtacha oylik ish haqi to'lanishi uchun ma'lumotnoma olish bo'yicha elektron davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga  
1-ilova

**Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar bo'shagan ish joyidan uchinchi oyga o'rtacha oylik ish haqi to'lanishi uchun ma'lumotnoma olish bo'yicha elektron davlat xizmatini ko'rsatish sxemasi**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Sub'ektlar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>

1-bosqich	Ariza beruvchi	Davlat xizmatidan foydalanish uchun YIXDP orqali ro'yxatdan o'tadi	Mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan so'ng o'ttiz kalendar kun ichida
2-bosqich	Mahalliy mehnat organi	Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni va u bilan mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganligi to'g'risidagi yozuvlar ish beruvchi tomonidan "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilganligini tekshiradi.	Murojaat kelib tushgandan so'ng uch ish kuni ichida
3-bosqich	Mahalliy mehnat organi	Ariza beruvchini ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga oladi va unga ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatga olinganligi to'g'risida YIDXP orqali QR-kodli ma'lumotnoma yuboradi.	Murojaat kelib tushgandan so'ng besh ish kuni ichida
4-bosqich	Ariza beruvchi	Ariza beruvchi mahalliy mehnat organi tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida uchinchi oy uchun ham ish haqini olish avvalgi ish joyiga murojaat qiladi.	Ma'lumotnomani olgandan keyin besh ish kuni ichida

Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar bo'shagan ish joyidan uchinchi oyga o'rtacha oylik ish haqi to'lanishi uchun ma'lumotnoma olish bo'yicha elektron davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga  
2-ilova

**Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilingan  
xodimlar bo‘shagan ish joyidan uchinchi oyga o‘rtacha oylik ish  
haqi to‘lanishi uchun ma‘lumotnoma olish bo‘yicha elektron  
davlat xizmatidan foydalanish uchun so‘rovnoma**

<b>Ariza beruvchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar</b>	
1. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR):	
2. Familiyasi	
3. Ismi:	
4. Otasining ismi:	
5. Tug‘ilgan yili va sanasi:	
6. Yashash manzili:	
7. Ma‘lumoti (umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional, oliy):	
8. Tugallagan ta‘lim muassasasining nomi:	
9. Mutaxassisligi (mavjud bo‘lsa):	
10. Kasbi (mavjud bo‘lsa):	
11. Oxirgi ish joyi:	
13. Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko‘ra bekor qilinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (buyruq raqami, sanasi):*	
12. Telefon raqami:	
13. Elektron pochta manzili (mavjud bo‘lsa):	

*Izoh:*

*\* Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko‘ra bekor qilinganligi to‘g‘risidagi buyruq nusxasi PDF, PNG yoki JPEG formatda ilova qilinadi.*

Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar bo‘shagan ish joyidan uchinchi oyga o‘rtacha oylik ish haqi to‘lanishi uchun ma‘lumotnoma olish bo‘yicha elektron davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga  
3-ilova

**Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilingan  
shaxs ish qidiruvchi sifatida ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida  
ma‘lumotnoma**

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri**

(Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi nomi)

**MA’LUMOTNOMA**

Fuqaro \_\_\_\_\_ ning 20\_\_ yil «\_\_\_»  
\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-son murojaati \_\_\_\_\_ tuman  
(shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan  
qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilib, 20\_\_ yil  
«\_\_\_» \_\_\_\_\_dan ish qidiruvchi shaxs sifatida ro‘yxatga olindi.

Ushbu ma’lumotnoma asosida ariza beruvchi mehnat shartnomasi alohida  
asoslarga ko‘ra bekor qilingan ish joyidan uchinchi oy uchun ham o‘rtacha oylik ish  
haqini olish huquqiga ega bo‘ladi.

\_\_\_\_\_  
(mas’ul shaxsning lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

QR-kod